TALABALARNING KASBIY AUDITIV KOMPETENTSIYASINI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA XORIJ TAJRIBALARI TAHLILI

Abdukadirova N.A.,
GDPI Xorijiy tillar kafedrasi mudiri, dosent

Annotasya: ushbu maqolada talabalarning kasbiy auditiv kompetentsiyasini rivojlantirish bo'yicha xorij tajribalari tahlili atroflicha bayon qilngan.

Kalit so'z: "Assorted English Activities" elektron o'quv qo'llanma, esa, Children's Songs, Conversation and Writing Questions. English Idioms. English Proverbs. Fairy Tales. Folk Tales. Games and Activities for Teachers. General Knowledge Questions.

Abstract: This article provides a detailed analysis of foreign experiences in developing students' professional auditory competence.

Keywords: "Assorted English Activities" electronic textbook, esa, Children's Songs, Conversation and Writing Questions. English Idioms. English Proverbs. Fairy Tales. Folk Tales. Games and Activities for Teachers. General Knowledge Questions.

Jahondagi rivojlangan davlatlarning tajribasi ilg’or pedagogik texnologiyalarga asoslangan holda talabalarning bilim olishga bo’lgan qiziqish va ehtiyojlarini qondiribgina qolmasdan, yuqori malakali mutaxassislar etishtirib berish vazifalarini ham hal qilmoqda.

Biz tadqiqot doirasida talabalarning kasbiy auditiv kompetentsiyasini rivojlantirish bo’yicha xorij tajribalarini o’rgandik.

Rossiyalik olimlar T.I.Koshman, M.U.Verbitskaya; xorij olimlari M. Mann, S.Teylor-Noulz va boshqalar tomonidan talablarning ingliz tilini o’rganishlari uchun yaratgan o’quv qo’llanmalari, darsliklari, elektron ta’limiy resurslari tahlil etildi.

Ingliz tili o’qituvchilari uchun mo’ljallangan “Assorted English Activities” elektron o’quv qo’llanmada esa, **“**A Bit from Everything. Children's Songs. Conversation and Writing Questions. English Idioms. English Proverbs. Fairy Tales. Folk Tales. Games and Activities for Teachers. General Knowledge Questions. Grammar Summary. Guess-The-End Jokes....” , ya’ni “Hamma narsa to’g’risida”, “ Talabalar uchun qo’shiqlar”, “ Suhbatlashish va yozish uchun savollar”, “Inglizcha iboralar” “Ingliz maqollari” “Ertaklar”, “Xalq ertaklari”, “O’qituvchilar uchun o’yinlar va tadbirlar”, “Umumiy bilim olish uchun savollar”, “Grammatika”, “Hazillarni taxmin qiling ...” kabi ruknlar kiritilgan. Ushbu elektron qo’llanma 9,28 MBni tashkil qilib, 2017 yilda tayyorlangan.

Xuddi shunday elektron qo’llanmalardan biri – “BBC Learning English - 278 Quizzes (Elementary - Advanced)” deb nomlanadi. Unda “Ingliz tilidan audiokurslar” rukni mavjud bo’lib, ushbu audioyozuvlarda turli viktorina savollari, grammatikaga oid matnlarning o’qilishi va talaffuz etilishi yozilgan. Unda 5 guruhga bo’lingan 278 ta BBC Quizzes joylashtirilgan, ya’ni Grammar; Vocabulary; Topic based ; Country ; Other. Har bir javob variantiga izohlar keltirilgan bo’lib, ularning qaysilar to’g’ri yoki noto’g’ri ekanligi tahlil etilgan.

Yana bir elektron ta’limiy qo’llanmalardan biri – bu M. Verbitskaya va M. Mann tomonidan tayyorlangan “ Testo’ dlya podgotovki k GIA po angliyskomu yazo’ku»(2017y.)elektron ta’limiy qo’llanmadir. Unda axborot nternet-resursi bilan GIAga ingliz tilida tayyorgarlik ko’rish uchun testlar kiritilgan. Elektron qo’llanmada ta’lim va fan sohasidagi nazorat federal xizmati tomonidan ingliz tilida davlat (yakuniy) sertifikatlash uchun materiallarni nazorat qilish va o’lchash bo’yicha talablar hisobga olingan. O’quv qo’llanma 104,34 MBni tashkil qiladi.

Yu.S. Veselova tomonidan tayyorlangan “ Sbornik trenirovochno’x i proverochno’x zadaniy» (2013 y.) nomli elektron o’quv qo’llanmasida har xil turdagi AUDIO yozuvlarda umumta’lim maktablarining 5-sinf talabalari tomonidan ingliz tili darslarida o’rganilgan materialni takrorlash jarayonida foydalanish uchun mo’ljallangan matnlar berilgan. shuningdek, davlat imtihonlarining dastlabki bosqichlariga tayyorgarlik ko’rish uchun audioyozuvlar kiritilgan. Mazkur elektron qo’llanma 116,79 MBni tashkil qiladi.

E.V.**Rusinova tomonidan yaratilgan “Trenajer po chteniyu. Bukvo’ i zvuki**” nomli elektron qo’llanma bir vaqtning o’zida darslik va ish daftari vazifasini bajaradi. Kursning asosiy maqsadi har qanday inglizcha so’zni qanday o’qishni o’rganishdir. Kurs 35 darsdan iborat bo’lib, asosan, (7-10 yoshdagi bolalar va ingliz tilini

elementar darajada o’rganuvchilar uchun mo’ljallangan. Shuningdek, ushbu elektron ta’limiy resurs ingliz tilini o’rganishni yangi boshlayotganlarga amaliy yordam vazifasini utaydi. Elektron ta’limiy resurs 12,41 MBni tashkil qiladi.

O’tkazilgan tahlillardan ko’rinib turibdiki, bugungi kunda pedagogik jarayonda talabalarning nutq o’zlashtirishlariga mo’ljallangan elektron ta’limiy resurslar mavjudligiga qaramasdan, o’zbekistonlik talabalar uchun milliy mentalitet xususiyatidan kelib chiqib hamda til o’zlashtirish bo’yicha malaka talablarini amalga oshirish uchun muayyan ishlab chiqilgan axborot-kommunikatsion ta’limiy resurslariga ehtiyoj mavjud. Garchi, bugungi kunda respublikamiz OTMlarida ingliz tilini o’qitishda ko’plab xorijiy mamlakatlar tajribasiga tayanish holatlari mavjud bo’lsada, ushbu muammo o’z echimini kutayotgan masalalardan biriga aylangan.

Biz tadqiqot doirasida xorij tajribalarini o’rganar ekanmiz quyidagi metodlarni o’qitish jarayonida qo’llash borasidagi tajribalarni ham tahlil qildik.

"Silent way" (jimlik metodi) XX asrning 60-yillarida vujudga kelgan. Bu metod ingliz tilini o’rganishda tabiiy omillardan foydalanishni ko’zlaydi Har bir insonda til o’rganish qobiliyati tabiiy mavjud bo’ladi. Shunga ko’ra, talaba ingliz tilini mukammal o’rganmoqchi bo’lsa, unga barcha pedagogik shart-sharoitlarni yaratib berish zarur bo’ladi. Shu bois, mazkur metod tarafdorlari fikri bo’yicha ingliz tili o’qituvchisi talabaning imkoniyatlarini ro’yobga chiqarishga shart-sharoit yaratishi zarur. O’qituvchi so’zlarning turli simvollarini ko’rsatish, o’qish va eshittirish orqali talabaning til boyligini ko’paytiradi. Simvollar keyinchalik so’zlar bilan uzviy bog’liqlikda xotirada saqlanib qoladi.

"Total-physical response" (jismoniy jihatdan axborotga nisbatan ta’sirni ko’rsatish metodi). Mazkur metodning talabiga binoan o’zidan o’tkazilmagan har qanday axborot xotirada saqlanib qolmaydi. Shu bois ham xorijiy tilni o’rganish uchun til axborotini inson o’zidan o’tkazishi lozim. Shunga ko’ra, avval talaba etarli hajmdagi xorijiy til bo’yicha axborotlar bilan qurollantiriladi. Keyin esa qariyib yigirma soat talaba faqat berilgan axborotlar majmuasidan iborat xorijiy til materialini muntazam eshitib boradi. Keyin esa talabadan olingan axborotlarga nisbatan jismoniy javob berish talab etiladi. Javob berish tana harakatlari orqali kechadi. Masalan, “Stend up!” deyilganda talabalar turadi, “Sit down!” deyilganda talabalar o’tiradi. Binobarin, uzoq vaqt talaba avval eshitib, keyin o’z harakatlari orqali axborotni o’zlashtirib olganidan so’nggina mana shu axborot bilan faol munosabatlar o’rnatiladi. Mazkur metodda talabalar keyinchalik na faqat o’qituvchi bilan, balki faol tarzida o’zaro ham keng muloqotga kirishadilar.

"Sugesto pedia" – talabalarning kasbiy auditiv kompetentsiyasini rivojlantirishda (colloquial speech) va yozma («reading») nutqning til materialiga chuqur kirib borish metodi. Mazkur metod o’tgan asrning 70-yillaridan keng tarqala boshladi. Mazkur metod tarafdorlarining fikriga ko’ra, inson har qanday boshqa xorijiy tilni o’rganishi mumkin. Shu bois, guruhdagi barcha talabalar o’zlariga yangi, xorijiy til mamlakatiga doir ismlarni qabul qiladilar, o’zlari uchun yangi biografiyalarni o’ylab chiqaradilar. Yangi til mamlakatida yashashni fantaziya qila boshlaydilar. Shu bois, talabalarda illyuziya, ya’ni yangi mamlakatda yashayotgan yangi inson qiyofasi vujudga keltiriladi. Talabalarning kasbiy auditiv kompetentsiyasinirivojlantirishda (colloquial speech) va yozma (“writing”) til

o’rganish imkoniyatlari juda kengayadi, ular erkin muloqotga kirishganidan so’ng esa, ularda o’z kuchlariga ishonch bir necha barobar ortadi.

Pol Pimslerning til o’rgatish metodi -talabalarning kasbiy auditiv kompetentsiyasini rivojlantirishda nutqning asosiy to’rt kategoriyadan iborat bo’lgan tizimga tayanadi. Bular antitsipatsiya, tizimlangan interval takrorlar, so’z yadrosi va cheklangan ta’lim. Antitsipatsiya asosida talabalarning kasbiy auditiv kompetentsiyasinirivojlantirishda (colloquial speech) va yozma («writing») nutqni bir vaqtning o’ziga ham ko’radi, ham eshitadi, ham talaffuz qilishga o’rganadi, ham o’z xotirasida uni jonlantirishga urinadi. Mazkur metod asosidagi mashg’ulotliklar Pimsleur Language Programs markazi tomonidan ishlab chiqilib Simon & Schuster nashriyoti tomonidan nashr qilinadi. Har bir mashg’ulot 30 minutlik elektron tashuvchida jamlangan audio-mashg’ulotdan iborat. Bugungi kunda mazkur metod asosida turli kommunikatsion ishlanmalar keng ko’lamda ishlatiladi. Ular ichida audio va video kassetalar, internetga joylangan ochiq mashg’ulotlar, SD disklar mavjud. Pismslerning metodi ko’pchilik zamonaviy metodlar kabi ko’proq xorijiy tilga so’zlashish va muloqot qilishga o’rgatadi. Ushbu metod talabalarning kasbiy auditiv kompetentsiyasinirivojlantirishga mo’ljallangan bo’lsada, colloquial speech va yozma «reading» nutq malakalariga o’rgatmaydi.